



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MIHITNI  
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI  
SIRDARYO VILOYATI BOSHQARMASI**

**O‘ZBEKISTON EKOLOGIYA PARTIYASI SIRDARYO  
VILOYATI KENGASHI**

**“O‘SIMLIK MAHSULOTLARINING YETISHTIRISHDA  
KIMYOVIY, BIOTEXNOLOGIK VA MOLEKULYAR  
GENETIK YONDASHUVLAR”**

**MAVZUSIDA**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

**GULISTON-2024**

<b>DORIVOR O'SIMLIKLARNING SANOAT PLANTATSIYALARINI TASHKIL ETISH - DAVR TALABI</b> Karshibaev Kh.K.....	300
<b>SIRDARYO SHAROITIDA <i>PHACELIA TANCETIFOLIANS</i> INTRADUKSIYASI VA PLANTATSIYALARINI TASHKIL ETISH.</b> Abdurashidova Maloxat Abduqodirovna., Jozilova Muborak Abduvali qizi.....	302
<b>BATAT(SHIRIN KARTOSHKKA) YETISHTIRISHDA ORGANIK VA MINERAL O'G'ITLARNING O'RNI.</b> Ismailova N.A.....	304
<b>SIRDARYO VILOYAT TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA DORIVOR HELBA "TRIGONELLA FOENUM GRAECUM" O'SIMLIGINI YETISHTIRISH.</b> Mavlonova.M.A.....	307
<b>SH. RASHIDOV TUMANI SHAROITIDA <i>FERULA KUHISTANICA</i> KOROVIN TURINING INTRODUKTSIYASI</b> <sup>1</sup> Avalbayev Olimjon Narkuziyevich, <sup>2</sup> To'xsanov Shahboz A'lam o'g'li <sup>3</sup> Rahmonova Umida Urazali qizi .....	310
<b>SH. RASHIDOV NOMLI SAMDU GERBARIY FONDI QISQACHA TARIXI VA <i>ASTERACEAE</i> BERCHT. OILASIGA MANSUB TURKUM TURLARI</b> .Omonov Sindor Obloberdi O'g'li Islamov Bo'ston Sultanovich, .....	314
<b>MIRZACHO'L SHAROITIDA TARQALGAN CHAMOMILLA <i>RECUTITA</i> (L.) RAUSCHERT O'SIMLIGINING FITOKIMYOSI VA AGROTEKNIKASI</b> Sodiqova Sevara, Abduxoliqov Farrux ..	319
<b>O'ZBEKISTON SHAROITIDA O'SADIGAN <i>ROSA</i> TURKUMI AYRIM TURLARINING XO'JALIKDAGI AHAMIYATI VA YETISHTIRIS TEXNOLOGIYASI</b> Tagayeva Dilnoza Mamadiyarovna.....	323
<b>NAMATAKNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA ETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI</b> To'raqulova O.M., Botirova L.A.....	328
<b>DORIVOR O'SIMLIKLAR INTRODUKSIYASIDA TABIIY FIZIOLOGIK FAOL MODDALAR ARALASHMALARIDAN FOYDALANISH.</b> Xo'jamqulov Oxunjon Raxmatullo o'g'li .....	333
<b>BAMIYA (<i>HIBISCUS ESCULENTUS</i> L.) O'SIMLIGI ISTIQBOLLARI</b> Ruzigul Shakarovna Bazarova*, Ozoda Ikromovna Mamatqulova ** .....	335
<b>CARDIOSPERMUM HALICACABUM O'SIMLIGINING BIOLOGIK HUSUSIYATLARI</b> Ruzigul Shakarovna Bazarova*, Ozoda Mamaraim qizi To'raqulova** .....	339
<b>РОЛЬ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА</b> Турсунова Жамила.....	344
<b>BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASHDA EKOLOGIK TA'LIM, TARBIYANING AHAMIYATI</b> Inomjon Baxramov, Jumabayeva Sevara, Shukurova Gulnoza, Xudoyberdiyeva Ruxsora.....	346
<b>QUSHQO'NMAS (<i>SILYBUM MARIANUM</i> L.)O'SIMLIGINING AHAMIYATLI JIHATLARI XUSUSIDA.</b> Amonova G.R. Rashidov N.E.....	349

4. Bakhramov Inomjon, Jumabayeva Sevara “Bioremediation of contaminated soils using tall plants” Vol. 3 No. 19 (2024): Innovations in Technology and Science Education

5. Хужжиев Содик Олтиевич, Бахрамов Иномжон Закирович “Фиторемедиация почв, загрязнённых тяжёлыми металлами” (биологические науки) Естественные науки. 2022. № 2 (7). С. 37–45.

## **QUSHQO‘NMA (SILYBUM MARIANUM L.) O‘SIMLIGINING AHAMIYATLI JIHATLARI XUSUSIDA.**

Amonova G.R. Rashidov N.E.

Buxoro davlat universiteti, magistr., Buxoro davlat universiteti, dotsent  
(Buxoro, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada *qushqo‘nmas* (*silybum marianum*)ning foydali xususiyatlari, uning tarkibidagi moddalar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, dorivorlik xususiyatlari va kasalliklarni davolashdagi o‘rni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Rastoropsha, barg, gul, silimarin, silibin, silidianin, silixristin.

*Qushqo‘nmas* (*Silybum marianum*) o‘simligi ruderal o‘simliklar qatoriga kiradi. Ruderal o‘simliklari deb kuchli antropogen ta‘sir doirasida bo‘lgan yashash muhitlarida – aholi yashash punktlari va ularning atrofi, avtomobil va temir yo‘llar yoqalari, partob yerlar, tashlandiq yerlar, ahlalxonalar, chorva hayvonlari qo‘ralarining atroflarida o‘sadigan o‘simliklarga aytiladi.

Hozirgi vaqtda *qushqo‘nmas* o‘simligi Rossiyaning Krasnodar o‘lkasida, Povolje va Moskva viloyatlarida yetishtiriladi. Ozarbayjon tuproq-iqlim sharoitlarida ham muvaffaqiyatli sinalgan. Mahsulotning ayrim qismi eksport qilinadi. Farmatsevtik nuqtai nazardan *rastoropshaning* dorivorlik xom ashyosi uning to‘la pishish davrida yig‘ilgan mevalari hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham ushbu o‘simlik dorivor ekin sifatida yetishtiriladi.

Botanik tavsifi. *Qushqo‘nmas* (*Asteraceae*) oilasiga kiruvchi bir yoki ikki yillik o‘simlik. Balandligi 30- 60 sm ga etadi. Poyasi baquvvat, tik turuvchi, kam shoxlangan, chiziq-chizikli, silliq yoki ikkinchi yili hosil bo‘ladigan biroz o‘rgimchaksimon tuklangan. To‘pbargining ildizbog‘zi barglari yirik (uzunligi 80 sm gacha va eni 30 sm gacha) cho‘zinchoq ovalsimon, kuchli burishgan; poya barglari ketma-ket joylashgan, terisimon, oq ko‘ndalang chizikli yaltiroq, chetlari va ostki tomondan tomirlari bo‘ylab sarg‘ish tikanlari bor. Gullari yorqin pushti-binafsha rang yoki qizil rang bo‘lib, yirik yakka sharsimon savatchalarda to‘plangan. O‘rama barglari tikanli. Savatchadagi barcha gullari naysimon shaklda, ikki jinsli. Mevasi oq dog‘li, popukli pistacha, usti burishgan, uzunligi 5 mm. May avgust oylari gullaydi. Mevalari sentyabr-oktyabr oylarida pishadi.[2]

Kimyoviy tarkibi. Asosiy faol moddasi tabiatda kamdan-kam uchraydigan biologik faol modda – silimarindir (2,7%). Silimarin bu uchta izomer – silibin, silidianin va silixristin aralashmasidan tashkil topgan. Bundan tashqari, *qushqo‘nmas* mevalari tarkibida 30% dan ortiq yog‘lar va 0,1% gacha efir moylari, biogen aminlari (tiramin, gistamin), qatronlar, makroelementlar (kaliy – 9,2 mg/g, kalsiy – 16,6 mg/g,

magniy – 4,2 mg/g, temir – 0,08 mg/g), mikroelementlar (bor – 22,4 mkg/g, yod – 0,09 mkg/g, marganets – 0,1 mkg/g, mis – 1,16 mkg/g, selen – 22,9 mkg/g, xrom – 0,15 mkg/g, rux – 0,71 mkg/g va boshqalar), B, A, D, E, F, K guruh vitaminlari va boshqalar mavjud.

Dorivorlik xususiyatlari. *Qushqo'nmas*dan tayyorlangan preparatlar jigarni zararsizlantirish funksiyasini kuchaytiradi, jigar to'qimalarining tiklanishiga yordam beradi, safro sekretsiyasini oshiradi, yog'larning hazm bo'lishini yaxshilaydi, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, jarohatni bitiruvchi, yaraga qarshi, kapillyarlarni mustahkamlovchi va antioksidant xususiyatlarga ega. *Qushqo'nmas* urug'ining moyi jarohatni bitiruvchi, kuyishga qarshi, gepatoprotektiv xususiyatlarga ega va biologik faolligi jihatidan chakanda moyidan kam emas. *Qushqo'nmas*ning urug'lari o'tkir va surunkali gepatit, jigarning sirrozi va toksik-metabolik shikastlanishlari (alkogol, dori vositalari, kimyoviy, oziq-ovqat), homilador ayollarning toksikozi, xoletsistit, o't pufagining yallig'lanishi va o't toshi kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

O'simlik urug'ini iste'mol qilish oshqozon-ichak traktining sekretor va harakatlantiruvchi funksiyalarini kuchaytiradi, yog'lar va yog'da eriydigan vitaminlarni to'liq o'zlashtirilishiga yordam beradi, ich qotishni yo'qotadi, oshqozon va yo'g'on ichak shilliq qavatining yallig'lanish jarayonlarini davolaydi. *Qushqo'nmas*ning urug'lari kimyoviy va nur terapiyasida profilaktika vositasi sifatida qo'llaniladi, shuningdek, ortiqcha ichish natijasida vujudga kelgan intoksikatsiyani yo'qotish uchun ishlatiladi. Ildizlarning damlamasi diareya, radikulit va tomir tortishishlarda siydik haydovchi vosita sifatida qabul qilinadi. *Qushqo'nmas*ning barg sharbati ich qotishi, yo'g'on ichak va oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi, bo'g'imlar og'rig'ida ichiladi. Urug'larning qaynatmasi va nastoykasi venalarning varikoz kengayishida ichiladi.

*Sut qushqo'nmasi*(*silybum marianum*) insonning immunitetini oshirishga yordam beradi. Bu organizmga infeksiyaga qarshi kurashishda yordam beradi va immunitet tizimidan kelib chiqqan surunkali yallig'lanishni kamaytiradi. Shuningdek, *sut qushqo'nmasi* immunomodulyator ta'sirga ega. Bundan tashqari, astma va allergik rinit kabi holatlar bilan bog'liq surunkali yallig'lanishni bostirishda faol qatnashadi.

*Sut qushqo'nmasi*ning muhim ta'sirlaridan yana biri shundaki, u emizikli onalarda ko'krak suti ishlab chiqarilishini ko'payishiga yordam beradi. Bu sut ishlab chiqaruvchi prolaktin gormonini ko'proq ishlab chiqarilishi bilan bog'liq. Demak *Silybum marianum* o'simligi o'simliklar olamida ma'lum qoplamlar tarkibida muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga inson sog'ligini saqlashda juda qadrlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqolada *qushqo'nmas* o'simligining barcha xususiyatlari bilan tanishib chiqdik. Bu o'simlikning kimyoviy tarkibi o'ziga xos bo'lib tarkibidagi moddalar qator kasalliklarga davo ekanligini yuqoridagi ma'lumotlardan bildik. Shu ma'lumotlarga asoslanib bu o'simlik xalq tabobatida muhim ahamiyatga ega degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2019-y., 07/19/4546/4126-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son; 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son).
2. O.K. Xojimatov, X.Q. Haydarov, D.T. Xamraeva, D.A. Imomova, A.N.Xujanov O'ZBEKISTON DORIVOR O'SIMLIKLAR ATLASI o'quv qo'llanma/.
3. Jo'rayeva M.A. Dorivor o'simliklar atlas. O'quv qo'llanma Toshkent Noshir nashriyoti. 2019 yil .
4. Mustafayev S.M. - Botanika. —O'zbekiston nashriyoti, Toshkent, 2002.
5. Pratov. O'., Jumayev.Q. - Yuksak o'simliklar sistematikasi. Toshkent, 2003.
6. Matkarimova A.A., Mahkamov T.X., Maxmudova M.M., Azizov X.Ya., Vaisova G.B. – Botanika. «Go To Print» nashriyoti, Toshkent, 2020.
7. Pratov. O'., Nabiyeu M.M. – O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi. —O'qituvchi nashriyoti, Toshkent, 2007.
8. Pratov.O'., Shamsuvaliyeva L., Sulaymonov E., Axunov A., Ibodov K., Mahmudov V. – Botanika. (Morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) . — Ta'lim nashriyoti . Toshkent, 2010.
9. Xoliqov S., Pratov O'., Fayziyev A. - O'simliklar aniqlagichi . — O'qituvchi — nashriyoti, Toshkent, 1995.
10. Matkarimova A.A., Mahkamov T.X., Maxmudova M.M, Azizov X.Ya, Vaisova G.B. – Botanika. «VNESHINVESTPROM» nashriyoti, Toshkent, 2019.
11. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur bo'stoni — 2018.
12. Введенский. А. И. Флора Узбекистана. 5- том. Топкент, 1961.
13. Young, J.A.; Evans, R.A.; Hawkes, R.B. Milk thistle (*Silybum marianum*) seed germination. Weed Sci. 1978